

SPORT ATAMALARINI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Ayxodjayeva M.S
O'zDJTSU dotsenti

Abstract. The article analyzes sports terminology - a system of rapidly developing lexical units - and focuses on the changes that have occurred in the composition of sports, particularly football, terms when translated from English and Russian into Uzbek.

Keywords: sports terminology, translational changes, word formation methods.

Annotatsiya. Maqolada sport atamashunosligi kabi tez rivojlanayotgan leksik birliklar tizimi tahlil qilingan, sport, xususan, futbol atamalarini ingliz va rus tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilishda ular tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: sport atamashunosligi, tarjimadagi o'zgarishlar, so'z yasash usullari.

Аннотация. В статье анализируется спортивная терминология – система быстро развивающихся лексических единиц, уделяется внимание изменениям, произошедшим в составе спортивных, в частности, футбольных, терминов при переводе с английского и русского языков на узбекский.

Ключевые слова: спортивная терминология, переводческие изменения, способы словообразования.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda ham rus, ham o'zbek tillaridagi sport atamashunosligi globallashtirish, mamlakatlararo aloqalarning kengayishi, xususan, sport bilan bog'liq munosabatlarning chuqurlashuvi, yangi sport turlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi tufayli sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda.

So'nggi yillarda tarjimachilik amaliyotida, ayniqsa, sport atamalarini tarjimasi muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda, negaki mamlakatimizda Osiyo va jahon birinchiliklari singari ko'plab yirik xalqaro sport musobaqalari tashkil etilyapti. 2025-yilda O'zbekiston voleybol bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon birinchiligiga mezbonlik qilgan bo'lsa, 2029-yilda IV yoshlar Osiyo o'yinlarini Toshkentda o'tkazish rejalashtirilgan. Bundan tashqari ham sport sohasi atamalarining professional tarjimasi talab qilinadigan qator boshqa turnirlar muntazam o'tib turadi.

Ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligi sport atamashunosligi kabi tez rivojlanayotgan leksik birliklar tizimini chuqur tahlil qilish zarurati bilan ham bog'liq. Tilning dolzarb va talab qilinadigan quyi tizimlari sohasidagi qonuniyatlarni o'rganish orqali uning hozirgi holati va umuman rivojlanishi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Eng avvalo, "atama" tushunchasini mutaxassislar qanday ta'riflaganlariga e'tibor qaratsak, ko'plab yetakchi o'zbek, rus tilshunos-atamashunoslarining unga turlicha izoh berganlarini ko'ramiz.

Taniqli tilshunos olimimiz A.Hojiyev atama (termin) tushunchasiga ta'rif berar ekan, uning umumiste'moldagi so'zlardan asosiy farqlariga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra atama

— “Aniq ilmiy yoki kasbiy tushunchani bildiruvchi, mantiqiy jihatdan qat’iy chegaralangan va maxsus lug’at qismiga kiruvchi til birligi». ¹

O‘zbek tilshunosligi jamoasi tomonidan yaratilgan izohli lug’atlarda atamaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Fan-texnika, qishloq xo’jaligi, san’at va madaniyat sohasiga xos, muayyan tushunchani bildiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; termin”²

S.V.Grinev fikricha: “... maxsus tushunchalarni aniq nomlash uchun qabul qilinadigan ixtisoslik tilining maxsus nominativ leksik birligi (so‘z yoki so‘z birikmasi)”.

V.N.Nemchenko ta’rifiga ko‘ra: “... kasbiy tushunchani bildiruvchi so‘z yoki (komponentlari tobe bog‘langan) so‘z birikmasi.

Ushbu ta’riflarni tahlil qilib va ulardagi asosiy jihatlarni ajratib olib, shuni ta’kidlash mumkinki, atama – bu qat’iy belgilangan ilmiy tushunchaning belgisi bo‘lgan, fan yoki texnikaning muayyan tarmog‘idagi boshqa tushunchalar bilan birgalikda bitta semantik tizimni tashkil etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasidir.

Atamalar qo‘llanadigan sohalar juda ko‘p. Sport atamaları – bu sportning tor sohasida foydalaniladigan atamalar, sport tovarlari va jihozlarning firmasiga xos nomlari va tarjima qilishda qiyinchilik tug‘diradigan nomlar, chunki ularning bir qismi oddiy lug’atlarda mavjud emas: starred – был ведущим игроком – yetakchi o‘yinchi edi; cup winners’ cup – кубок обладателей кубков – kubok egalari kubogi, supporting foot – опорная нога – tayanch oyoq va boshqalar.

Yangi sport atamalarining shakllanish modellarini ko‘rib chiqib, quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Affiksatsiya usuli: athlete – спортсмен – sportchi, footballer – футболист – futbolchi.

2. So‘zlarni qo‘shish usuli: passer – пасующий – pas beruvchi, scorer – забивающий гол – gol uruvchi.

3. So‘z yoki so‘z birikmasini yangi ma’noda qo‘llash: linebacker – защитник задней линии – orqa chiziq himoyachisi, pick – подбор мяча – to‘pni ilib ketish, freshman – новичок, играющий в команде первый год – jamoada birinchi yil o‘ynayotgan yangi o‘yinchi.

4. So‘z birikmasi: to pass a record – побить рекорд – record o‘rnatmoq, title - fight – борьба за звание – unvon uchun kurash, point man – eng ko‘p gol urgan kishi.

5. Murakkab sport atamalarida alohida elementlar ma’nosining o‘zgarishi: a long - shot chance – шанс с прицелом на будущее – kelajakka mo‘ljallangan imkoniyat; a bicycle kick – удар с переворота – to‘ntarilib zarba berish.

6. To‘liq shaklidan tashqari qisqartmasi ham bo‘lgan bir qator sport atamaları mavjud bo‘lib, ular transkripsiya yoxud taransliteratsiya usulida ko‘chiriladi: The Fédération Internationale de Football Association – FIFA. Bunday qisqartmalar odatda tarjima qilinmaydi: UEFA – УЕФА – UEFA. Zarur hollarda uni “Yevropa Futbol Assotsiatsiyalari Ittifoqi” shaklida berish mumkin, ammo o‘zbek tilidagi so‘zlardan qisqartma yasashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sport terminologiyasini berishda tarjimaning ikki yo‘li mavjud: to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki so‘zma-so‘z tarjima va bilvosita tarjima. Ba’zida asl tildagi ma’lumot tarjima tiliga juda yaxshi tarjima qilinadi. Bunda tarjimon atamani berishda to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimani tanlaydi.

¹ Hojiyev A. (2002). Tilshunoslik terminlarning izohli lug’ati. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (104 b.)

² O‘zbek tilining izohli lug’ati (5 jild). (2006–2008). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (B 5-ti tomlar.)

Soʻzma-soʻz tarjima aslyat tilidan tarjima tiliga oʻtishni anglatadi, bu toʻgʻri va idiomatik matn yaratilishiga olib keladi, tarjimon esa faqat tilning majburiy meʼyorlariga rioya qilinishiga diqqatini qaratadi, masalan: penalty-area line – линия штрафной площадки – jarima maydoni chizigʻi; shot into the near (long) corner of the goal – удар в ближний (дальний) угол ворот – darvozaning yaqin (uzoq) burchagiga zarba.

Biroq tarjimon ikki maʼlumotning umumiy taassuroti bir xil boʻlishiga erishish uchun tarjima tilida ekvivalent vositalar bilan toʻldirilishi kerak boʻlgan “boʻshliq” mavjudligini aniqlaganda, u turli xil tarjima transformatsiyalaridan foydalanadi: never - say - die defense - непробиваемая защита - mustahkam himoya.

Kalkalash – asl nusxadagi leksik birlikni uning tarkibiy qismlari – morfemalar yoki soʻzlarni ularning leksik mosliklari bilan almashtirish orqali tarjima qilish usuli. Soʻzlarni kalkalashning ikki turi ajratiladi: soʻz yasovchi va semantik.

1. Soʻz yasovchi kalkalar soʻzning “morfemik” tarjimasidan hosil boʻlgan soʻzlardir: goalpost – shtanga – ustun, half-time – половина игры – oʻyinning yarmi, handball – игра рукой – qoʻl bilan oʻynash.

2. Semantik kalkalar – oʻzga tildagi tegishli soʻzlar taʼsirida yangi maʼnolarga ega boʻlgan tarjima tilidagi soʻzlar: cannon ball - пушечный удар – oʻqdek zarba (zambarak oʻqi), dead ball – неподвижный мяч – harakatsiz toʻp (oʻlik toʻp), lobbed ball – навесной мяч – osma toʻp.

Taʼkidlash joizki, sport atamaları faqat sport oʻyinlari va ularning ishtirokchilari nomlari bilan cheklanib qolmaydi. Sport anjomlari, tashkilotlari, musobaqalar, bellashuvlar va mukofotlar nomlari ham shular jumlasidandir. Ushbu terminlarni tarjima qilishda tarjimon bir vaqtning oʻzida bir nechta tarjima transformatsiyalaridan foydalanadi.

Shunday hollar ham boʻladiki, tarjima tilida u yoki bu atamaning maʼnosini toʻliq yetkazadigan oʻxshashi mavjud emas va bu oʻrinda tarjimaning tasviriy usulidan foydalaniladi. Masalan: “off-side” soʻzi oʻzbek tilida ofsayd deb talaffuz qilinadi va “oʻyindan tashqari” holatni anglatadi, bu hujumchi oʻyinchining himoyalananayotgan jamoa oʻyinchilariga nisbatan yoʻl qoʻyib boʻlmaydigan pozitsiyasi hisoblanib, raqib darvozasiga hujum hakam tomonidan toʻxtatiladi.

Shunday qilib, atamalarni ingliz tilidan rus yoki oʻzbek tiliga tarjima qilishda biz koʻpincha soʻzma-soʻz yoki bilvosita tarjima, maʼnoviy tarjima, transkripsiya, kalkalash, tavsifiy tarjima kabi tarjima usullaridan foydalanamiz, bu esa maksimal ekvivalentlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. (2002). Tilshunoslik terminlarning izohli lugʻati. Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. – 104 b.
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati (5 jildlik). Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
3. Айходжаева М.С. Ўзбек тилининг умумий луғатларида спорт атамаларининг ифодаланиши // “Fan – sportga”, 2022, №3, 42-б.
4. Гринев С.В. Терминоведение. М.: Академия, 2008. – 112 с.
5. Немченко В.Н. Введение в языкознание. - М.: 2008. – 703 с.